

DIGITAL BUSINESS MANAGEMENT_WEEK_5. IMPROVING THE LABOR MARKET WITH THE HELP OF DIGITAL TECHNOLOGIES**RAQAMLI BIZNES BOSHQARUVI_5_HAFTA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MEHNAT BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH**

O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli texnologiyalar asosida rivojlanishi ularning mehnat bozori ishlash mexanizmlariga ta’sirini inobatga olinishini taqozo etadi. Mehnat bozori faoliyatining raqamli iqtisodiyotda natijalarini baholashdan kutilayotgan muhim iqtisodiy xulosa shuki, raqamli iqtisodiyotni kelgusida rivojlantirilishi aholi bandligi va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Bu o‘z navbatida, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori samaradorligini aniqlashning ilmiy asoslangan baholash usullarini qo‘llash zaruriyati mavzu dolzarbligini belgilaydi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida nazariy va metodologik nuqtai nazardan mehnat bozorini o‘rganish, bizning fikrimizcha, mehnat bozorlarining klassik modelini o‘rganish usullari va konseptual qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi zarur. Mehnat bozoriga bir vaqtning o‘zida mehnat va ish o‘rinlarini taqsimlash mexanizmi, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning axborot resurslari va umum foydalanish sifatidagi milliy axborot resurslaridan iqtisodiy va ijtimoiy-mehnat, makroiqtisodiy hamda institutsional munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish sohasida samarali foydalanish mexanizmi sifatida qarash raqamli iqtisodiyot sharoitida uni talqin qilishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi. Uslubiy yondashuvga ko‘ra mehnat bozorining turli professional segmentlari hajmini aniqlash uchun muallif tomonidan kiritilgan AKT sohasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning “axborot sig‘imi” tushunchasidan foydalanish bo‘yicha nazariy-uslubiy yondashuvlar oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mo‘ljallangan “Elektron tijorat” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yil 10-noyabrdagi 01/00-03/15-12479-son ma’lumotnomasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligining 2022 yil 25 noyabrdagi 388-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida AKT sohasida “axborot hajmi” tushunchasidan foydalanish mehnat bozorining turli professional segmentlari hajmini aniqlash imkonini bergan. Raqamli mehnat bozori faoliyati axborot modelining ishlash tamoyillari va ularni amalga oshirishni ta’minlaydigan mantiqiy-funksional tuzilmaviy yondashuv asosida qisqa muddatli davrda mehnat bozoridagi talab va taklifning o‘zaro muvofiqligini ta’minlashning maqbul ssenariyalarigako‘ra raqamli platformalarni takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Samarqand viloyati boshqarmasi faoliyatiga joriy

qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yi 10-noyabrdagi 01/00-03/15-12479-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida axborot modeliga asoslangan mehnat bozorini tadqiq qilish mexanizmi orqali mehnat bozori samaradorligi mezonlarini aniqlash imkonini bergan. Hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitlarida mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarida, faoliyat yuritishining obyektiv qonuniyatlarida xo‘jalik va jamiyat hayotini raqamlashtirilishi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida milliy iqtisodiyotda mehnat bozori mehnat va ish o‘rinlarini taqsimlash mexanizmi sifatida nafaqat talab va taklifning umumiy nazariyasi doirasida, balki jamiyatning iqtisodiy resurslarini iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari va sohalari tizimida qayta taqsimlash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Hozirgi vaqtda turli tarkibiy tasnifdagi katta hajmdagi ko‘p turdagi ma’lumotlarga ishlov berishning o‘ziga xos sohasi sifatida qaraladigan, axborot va raqamli texnologiyalar qo‘llaniladigan sanoat hamda xo‘jalik ijtimoiy faoliyat obyektlari bunday yo‘nalish va sohalari hisoblanadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida nazariy va metodologik nuqtayi nazardan mehnat bozorini o‘rganish, bizning fikrimizcha, mehnat bozorlarining klassik modelini o‘rganish usullari va konseptual qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi zarur, ammo iqtisodiy munosabatlarda axborot resurslarining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon bo‘lishi shartlariga qat’iy rioya qilinishi kerak, chunki bu namoyon bo‘lish mehnat bozori faoliyatida o‘ziga xos ta’sirga ega. Bu borada mehnat bozori bir vaqtning o‘zida mehnat va ish o‘rinlarini taqsimlash mexanizmi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning axborot resurslari va umumfoydalanish sifatidagi milliy axborot resurslaridan, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy, xususan, makroiqtisodiy jarayonlarni institutsional munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish sohasida ham samarali foydalanish mexanizmi sifatida qaralganda mehnat bozorini bunday talqin qilish asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning bandlik va ishsizlik darajasiga ta’sir qilish darajasini tasavvur qilish uchun, “Raqamli iqtisodiyot to‘g‘risidagi hisobot – 2019: Qiymat yaratish va foyda olish: rivojlanayotgan mamlakatlar uchun oqibatlar” nomli BMT hisobotidagi (BMT, 2020) ma’lumotlarni keltirish mumkin. Hisobotda “Raqamli iqtisodiyot amaliy jihatdan deyarli barcha yo‘nalishdagi mashinada o‘qilishi mumkin bo‘lgan juda katta miqdordagi axborotlarni (raqamli ma’lumotlar)

to'plash, foydalanish va tahlil qilish xususiyatiga ega ekanligi tufayli shiddat bilan rivojlanishda davom etadi. Bunday raqamli ma'lumotlar turli raqamli platformalarda jismoniy shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki korxonalar faolligi natijasida qoladigan "raqamli iqtisodiyot" tahlil qilish asosida to'planadi. Ma'lumotlarga asoslangan iqtisodiyot rivojlanishining dastlabki bosqichida bo'lishiga qaramay ma'lumotlar oqimining ko'lami to'g'risida qiyosiy tasavvur qilishga imkon beradigan global Internet protokolining (IP) trafik hajmi 1992 -yilda kuniga 100 Gb bo'lgan bo'lsa, 2017-yilga kelib sekundiga 45000 Gb dan ortib ketdi. Prognozlarga ko'ra, 2022-yilga kelib global IP-trafik hajmi sekundiga 150,700 Gb ga yetadi, bu Internetda yangi foydalanuvchilarning ko'payishi va buyumlar internetining kengayishi natijasida yuzaga keladi", – deb ta'kidlanadi.

Mehnat bozoriga raqamli texnologiyalar asosida ishsiz fuqarolarni doimiy va vaqtinchalik, bir martalik ishlar va xizmatlarga jalb etish, ish beruvchilarni malakali ishchi xodimlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishni ta'minlovchi axborot tizimini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Samarqand viloyati boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yi 10-noyabrdagi 01/00-03/15-12479-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyatdagi ishsiz fuqarolarni doimiy va vaqtinchalik, bir martalik ishlar va xizmatlarga jalb etish, ish beruvchilarni malakali ishchi xodimlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishni ta'minlash orqali mehnat bozori natijadorligi 15-20%ga oshgan.

Biz taklif etgan mehnat bozori faoliyatining axborot modeli doirasida uning axborot bazasini yaratishning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor berildiki bu axborot bazasi raqamli iqtisodiyotda raqamli va axborot texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari e'tiborga olgan holda, ommaviy raqamlashtirishning mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga ta'siri xususiyatlarini ("talablar"ni ishlab chiqishda) ko'rsatadigan mehnat bozorining shakllanishi va faoliyat ko'rsatish aspektlarini aks ettirishi zarurligi aniqlandi.

O'zbekistonning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil asosida 2026-yilga qadar rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021-yi 10-noyabrdagi 01/00-03/15-12479-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

dinamikasi orqali kadrlarni tayyorlashga ketadigan xarajatlarni 15-18%ga tejash imkoniyatlari aniqlangan. Hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitlarida mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarida, faoliyat yuritishining obyektiv qonuniyatlarida xo‘jalik va jamiyat hayotini raqamlashtirilishi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida milliy iqtisodiyotda mehnat bozori mehnat va ish o‘rinlarini taqsimlash mexanizmi sifatida nafaqat talab va taklifning umumiy nazariyasi doirasida, balki jamiyatning iqtisodiy resurslarini iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari va sohalar tizimida qayta taqsimlash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Hozirgi vaqtda turli tarkibiy tasnifdagi katta hajmdagi ko‘p turdagi ma‘lumotlarga ishlov berishning o‘ziga xos sohasi sifatida qaraladigan, axborot va raqamli texnologiyalar qo‘llaniladigan sanoat hamda xo‘jalik ijtimoiy faoliyat obyektlari bunday yo‘nalish va sohalar hisoblanadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida nazariy va metodologik nuqtayi nazardan mehnat bozorini o‘rganish, bizning fikrimizcha, mehnat bozorlarining klassik modelini o‘rganish usullari va konseptual qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi zarur, ammo iqtisodiy munosabatlarda axborot resurslarining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon bo‘lishi shartlariga qat‘iy rioya qilinishi kerak, chunki bu namoyon bo‘lish mehnat bozori faoliyatida o‘ziga xos ta‘sirga ega. Bu borada mehnat bozori bir vaqtning o‘zida mehnat va ish o‘rinlarini taqsimlash mexanizmi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning axborot resurslari va umumfoydalanish sifatidagi milliy axborot resurslaridan, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy, xususan, makroiqtisodiy jarayonlarni institutsional munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish sohasida ham samarali foydalanish mexanizmi sifatida qaralganda mehnat bozorini bunday talqin qilish asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

Foydalanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1.Akaev A.A., Kenjabaev A.T., Ilxamova Yo.S., Jumaniyozova M.Yu. Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari. Darslik.T.-“Fan va texnologiya”. 2019.- 510 bet.

2.Kenjabaev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.A.. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. O‘quv-qo‘llanma.T.-“O‘zbekitson faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. 2017.- 408 bet.

3.Lapidus L. Sifrovaya ekonomika. Upravlenie elektronnyim biznesom i elektronnoy kimmersiey. Uchebnik. M.: INFRA-M, 2019.- 348 str. <https://www.labirint.ru/books/670196/>.

4.Jason Murphy, “What Woolworths Needs to Do to Fight Back”, News.com.au, July 26, 2016, www.news.com.au/finance/business/retail/is-woolworths-at-risk-of-being-killed-by-german-giants/news-

story/32fddb1ca6925658a7e620357a8633a0; C. Wahlquist, “Amazon Expands in Australia and Plans Big Warehouse”, Guardian (London), April 19, 2017.

5. BI Intelligence, “Will the Internet of Things Be Bigger Than the Industrial Revolution?” Business Insider: Innovation, August 17, 2016, www.businessinsider.com/iot-ecosystem-internet-of-things-predictions-and-business-potential-2016-7. По отсенкам GE, k 2020 g. v mire budet naschityvatsya 50 mlrd podklyu-chennykh k internetu ustroystv.

6.A. Lashinsky, “Why Flex Is Going Beyond Its Manufacturing Roots”, Forbes, October 22, 2015.

7.Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Post-pandemic perspectives for the development of digitalization in Uzbekistan. International Journal of Management, IT & Engineering Vol. 12 Issue 9, September 2022, ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119 Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com Double-Blind Peer Reviewed Refereed Open Access International Journal - Included in the International Serial Directories Indexed & Listed at: Ulrich's Periodicals Directory ©, U.S.A., Open J-Gate as well as in Cabell's Directories of Publishing Opportunities, U.S.A.

8.Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS) Available online at: <http://euroasiapub.org> Vol. 12 Issue 09 September- 2022 ISSN: 2249-7382 Impact Factor: 8.018|.

9. Kenjabaev A.T., Sulonov. Risk management in investment projects. International Journal of Marketing and Technology. Vol. 12 Issue 08, August 2022, ISSN: 2249-1058 Impact Factor: 6.559. Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com. Double-Blind Peer Reviewed Refereed Open Access International Journal - Included in the International Serial Directories Indexed & Listed at: Ulrich's Periodicals Directory ©, U.S.A., Open J-Gate as well as in Cabell's Directories of Publishing Opportunities, U.S.A.

10.Aman Kenjabaev, Azamat Davletyarov, Dilmurod Suyunov. Digitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development Volume 12, Feb., 2023 ISSN (E): 2751-1731 Website: www.sjird.journalspark.org.

11.Aman Kenjabaev, Borikhon Ganikhodzhaev, Dilmurod Suyunov, Akbar Kuvandikov. Vevvelopment of the digital economy in uzbekistan and its main directions. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 14, March, 2023.